



**OILAVIY MUNOSABATLARNING O'QUVCHI
MUVAFFAQIYATIGA BILVOSITA TA'SIRI: PSIXOLOGIK
IQLIMNING AHAMIYATI**

G'ofurova Mavludaxon Oybek qizi
Qo'qon universiteti Andijon Filiali
Ma'sofaviy ta'lim Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi
Xalimjonov Abduqunduz Rahimjon o'g'li
“Kompyuter Injining va raqamli texnologiyalar” kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: xalimjonov1234@gmail.com
Telefon +998930608783

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlar va ularning o'quvchi (talaba) muvaffaqiyatiga bilvosita — psixologik iqlim orqali ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Psixologik iqlim tushunchasi, oilaviy omillar (ma'naviy-emosional qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy uslublar, ota-ona shaxsiy holati va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit) hamda ularning maktabdagi o'quv natijalariga ta'siri ilmiy-metodologik asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Oilaviy munosabatlar, o'quvchi muvaffaqiyati, Psixologik iqlim, motivatsiya, sog'lom muhit, emotsional barqarorlik, oila qo'llab-quvvatlashi, o'quvchi rivoji, psixologik ta'sir, shaxsiy o'sish.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние семейных отношений на успехи учащихся (студентов) через призму психологического климата. Рассматриваются понятие психологического климата, семейные факторы (духовно-эмоциональная поддержка, воспитательные стили, личное состояние родителей и социально-экономические условия) и их влияние на учебные результаты в школе на научно-методологической основе. В статье также даны рекомендации по усилению сотрудничества между семьей и школой.



Ключевые слова: Семейные отношения, успеваемость учащихся, психологический климат, мотивация, здоровая среда, эмоциональная устойчивость, семейная поддержка, развитие учащегося, психологическое воздействие, личностный рост.

Abstract: This article analyzes the impact of family relationships on student success, mediated through psychological climate. The concept of psychological climate, family factors (spiritual and emotional support, parenting styles, parents' personal condition, and socio-economic conditions), and their influence on academic performance are discussed on a scientific and methodological basis. The article also provides recommendations for strengthening cooperation between family and school.

Keywords: Family relationships, student achievement, psychological climate, motivation, healthy environment, emotional stability, family support, student development, psychological influence, personal growth.

Kirish

Yosh avlodning ta'limdagi muvaffaqiyati ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bolaning sifatli ta'lim olishi uchun albatta yaratilgan shart-sharoitlar muhim ro'l o'ynaydi. Shulardan biri — bu oila muhitidir. Ayniqsa bola yashayotgan oila muhitining ma'naviy- psixologik iqlimi sog'lom bo'lishligi uning ta'lim tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila — shaxsning birinchi ijtimoiylashuv muhitidir va unda shakllangan psixologik iqlim farzandning o'qishga bo'lgan munosabatini, motivatsiyasini, intilishlarini va natijada — muvaffaqiyat darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Oilaning bolani o'qishi uchun mas'ulligi “Ta'lim to'g'risida”gi 51-moddasida: “Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o'qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma'naviy va



intellektual rivojlanishi uchun mas'uldir. O'z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadryatlarni hurmat qilish ruxida tarbiyalash; o'z bolalarining intellectual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart- sharoitlar yaratishi" belgilab qo'yilgan.

Psixologik iqlim tushunchasi

Psixologik iqlim bu oilada mavjud bo'lgan hissiy-ruhiy holat, o'zaro munosabatlar sifati, muomala uslubi va har bir a'zoning o'zini qanday his qilishidir. Ijobiy psixologik iqlimda ulg'aygan bola o'zini xavfsiz, quvnoq, qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan deb his qiladi. Bu esa o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi. Psixologik iqlim – bu oila munosabatlari, ruxiy muhit va ijtimoiy- psixologik holatlarning yig'indisi hisoblanadi. Ijobiy psixologik iqlim jamoadagi ishonch, hamkorlik va o'zaro hurmatini kuchaytiradi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va inson omili bilan bog'liq masalalarda psixologik iqlim muhim o'rin tutadi. Har qanday oilaning muvaffaqiyati, avvalo, undagi ruhiy muhitning ijobiy yoki salbiyligiga bog'liqdir. Agar oilada ijobiy psixologik muhit hukm sursa, har bir shaxs o'zini qadrlangan, zarur va mas'uliyatli his qiladi. Shu sababli psixologik iqlimni shakllantirish va mustahkamlash dolzarb masala hisoblanadi.

OILAVIY OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI

1. Ma'naviy-emosional qo'llab-quvvatlash

Oilalarda bolalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash ustida gap ketganda, milliy axloqning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq zarur. Barchamizga ma'lumki oila bu insonning kamolatga yetkuzuvchi maskan. Farzandning hissiy holatini barqarorlashtirishda ota-onaning mehr-muhabbati, e'tibori va tushunishi muhim



o‘rin tutadi. Bunday muhitda bola o‘z fikrini erkin bildiradi, muammolarini oila bilan baham ko‘radi va bu ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi. Oilada bolani ma‘naviy-emotsional qo‘llab-quvvatlash - bu bolaning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantirishga yordam beradigan eng muhim omillardan biridir. Bu nafaqat bolaning hozirgi emotsional farovonligini, balki uning kelajakdagi psixologik sog‘lom rivojlanishini ham belgilaydi. Oilada bolani ma‘naviy-emotsional qo‘llab-quvvatlash yo‘llari:

1. Mehr va e‘tibor berish. Bu nima degani bolajonlarimizni mexr bilan quchoqlashimiz, uni yaxshi ko‘rishimizni aytish.
2. E‘tibor bilan tinglash: uning aytganlarini bo‘yinga olmay, diqqat bilan eshitish. Bunday bola nima haqida gapirishni boshlaganda “Gapir men seni diqqat bilan eshityapman” degan so‘zlar bilan bolani fikrini aytish uchun imkon berish.
3. Ijobiy fikr va so‘zlar ishlatish. Har doim bolani aybini betiga aytish emas, balki uni rag‘batlantirish. Harakatiga emas, shaxsiga ijobiy munosabatda bo‘lish.
4. Xatoga munosabatni o‘zgartirish. Bolaning xatolarini ko‘rsatishda jazolash emas, tushuntirish yo‘lini tanlash.
5. Stabillik va xavfsizlik hissini berish. Uyda mehr-muhabbat, hurmatga asoslangan muhit yaratish.
6. Birgalikda vaqt o‘tkazish. O‘yin o‘ynash, kitob o‘qish, birga sayrga chiqish orqali hissiy bog‘liqlikni kuchaytirish.
7. Emotsiyalarini tan olish va nomlashga o‘rgatish. Bolaga o‘z his-tuyg‘ularini tan olishga va ifoda etishga yordam berish.
8. Namuna bo‘lish. Ota-onalar o‘z emotsiyalarini qanday boshqarayotgan bo‘lsa, bola ham shuni o‘rganadi.



2. Tarbiyaviy uslublar

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda oilalarda umuminsoniy va milliy qadryatlarga tayangan holda sharqona axloqiy xususiyatlar aks etgan ma'naviy axloqiy munosabatlar qaror topmoqda va oilalarda xuquqiy ahloqiy va ruxiy asoslarga takomillashib bormoqda. Avtoritar, demokratik yoki erkin tarbiya uslublari farzandning shaxsiy rivojlanishiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, demokratik uslubda tarbiyalangan bolalar o'zini ishonchli tutadi, o'z-o'zini boshqaradi va ijtimoiy faolligi yuqori bo'ladi.

3. Ota-onaning shaxsiy holati

Bolaning tarbiyasida ota-onaning shaxsiy holati juda muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning shaxsiy tarbiyasi, ularning ahlaki, munosabatlari, xulq-atvori va umumiy hayotiy tajribalari bola tarbiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Ota-onalar bola uchun eng yaqin va muhim namuna hisoblanadi. Agar ota-ona o'z xulq-atvorida doimiy ravishda mehribon, hurmatli, halol va odobli bo'lsa, bola ham shunday xulqni o'rganadi. Bola ota-onaning muomala tarzini, muloqotda qanday so'zlashini, boshqa odamlar bilan munosabatlarni qanday yo'lga qo'yishini kuzatib boradi va shu asosda o'zining shaxsiy sifatlarini shakllantiradi. Agar ota-ona o'rtasida mehr-muhabbat, hurmat va yaxshi munosabatlar bo'lsa, bu bola psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'zini xavfsiz va baxtli his qiladi. Biroq, ota-onalar o'rtasidagi doimiy janjallar yoki o'zaro kelishmovchiliklar bola ruhiyatiga zarar yetkazishi mumkin. Bola oilaviy muhitni o'rganib, o'z hayotida ham shunday munosabatlarga asoslanishga moyil bo'ladi. Ota-onaning kasbiy faoliyati va moliyaviy holati ham bolaning tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Agar ota-ona o'z kasbida muvaffaqiyatli va qoniqarli bo'lsa, bola ulardan o'rnak olib, o'ziga maqsadlar qo'yishga o'rganadi.



Shuningdek, ota-ona moliyaviy jihatdan barqaror bo'lsa, bola bu xavfsizlikni his qiladi. Aksincha, moliyaviy qiyinchiliklar yoki ish bilan bog'liq stresslar ota-onaning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa bolaning ruhiyatiga ham ta'sir qiladi. Ota-ona qanday ta'lim olgan bo'lsa, bola ham o'z ta'limiga bo'lgan e'tiborini shakllantiradi. Ota-onalar bola uchun bilimning qadrini bilib, unga o'qish va o'rganishning ahamiyatini tushuntirsa, bola o'z kelajagi uchun yaxshi tayyorlanadi. Agar ota-ona o'qish va ta'limga e'tibor bermasa, bola ham shu tarzda tarbiya olishi mumkin. Ota-onaning hissiy holati bola uchun juda muhimdir. Agar ota-ona doimo xavotirda, g'azablangan yoki depressiv holatda bo'lsa, bu bolaning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Bola, ayniqsa kichik yoshdagilarda, ota-onaning ruhiy holatini juda sezgirlik bilan his qiladi. Bunday holatlar bola o'zini xavotirda yoki noxush his qilishiga olib kelishi mumkin. Bola tarbiyasida ota va onaning roli o'zaro bo'linadi, lekin ikkalasining o'zaro muvofiqligi va hamkorligi bola uchun eng yaxshisidir. Ota-ona o'rtasida tarbiya usullari to'g'risidagi qarashlar farq qilsa ham, ularning hamkorligi bola uchun yaxshi natijalar beradi. Bolaning tarbiyasida ota-onaning shaxsiy holati, xulqi, hissiy holati, kasbi va ta'limi juda muhim omillardir. Ularning o'zaro munosabatlari va bola bilan muloqoti bolaning shaxsiyatini va ruhiyatini shakllantiradi. Ota-onalar o'z holatini yaxshilashga harakat qilganlarida, bola ham sog'lom va baxtli shaxs sifatida tarbiyalanadi. Ota-onaning psixologik holati (stress, depressiya, ruhiy charchoq) to'g'ridan-to'g'ri bolaga o'tadi. O'z holatini nazorat qiladigan ota-ona o'z farzandiga ijobiy namuna bo'la oladi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit

Bolaning ta'lim va tarbiyasida ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Bu ikki omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bolaning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ota-onaning iqtisodiy holati, jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, oilaviy muhit va psixologik ko'nikmalar bolaning ta'lim olishiga, xarakterini



shakllantirishiga va umumiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning ta'siri. Bolaning ta'lim tarbiyasida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bevosita ta'sir qiladi. Ota-onaning moliyaviy holati, ularning jamiyatdagi o'rni, yashash sharoitlari va boshqa ijtimoiy omillar bolaning ta'lim olish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Moliyaviy jihatdan mustahkam oilalar bolalariga ko'proq ta'lim olish imkoniyatini taqdim eta olishadi. Ota-onalar farzandlarini maktabga, qo'shimcha kurslar, doimiy o'qish uchun zarur materiallar bilan ta'minlashga qodir. Aksincha, kam ta'minlangan oilalarda bola o'qish uchun zarur vositalarga, darsdan tashqari faoliyatlarga yoki ta'lim sifatiga ega bo'lmasligi mumkin. Jamiyatdagi ijtimoiy o'rinlar, oilaning ijtimoiy mavqei va ota-onaning ta'lim darajasi ham bolaga ta'lim olishda yordam beradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchilar (masalan, ijtimoiy xizmatlar, yordamchi tashkilotlar) ham bolalarga yaxshi ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishi mumkin. Ota-ona moliyaviy jihatdan kam bo'lsa, bolaga o'qish, sog'liqni saqlash yoki boshqa ehtiyojlar uchun zarur resurslarni taqdim eta olmasliklari mumkin. Bu bolaning psixologik holatiga ta'sir qilishi mumkin, chunki ular o'zini jamiyatdan ajratilgan yoki muvaffaqiyatsiz his qilishlari mumkin. Psixologik omillar. Bolaning psixologik rivojlanishi va ta'limi uchun muhim psixologik omillar mavjud. Bola tarbiyasida ota-ona munosabatlari, o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy adaptatsiya qobiliyati va ruhiy holat, ta'limga qiziqish, stressga bardoshlik kabi omillar bola rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bola o'zini psixologik jihatdan xavfsiz his qilganida va oilaviy muhiti barqaror bo'lsa, o'qishga motivatsiyasi yuqori bo'ladi. Ammo, agar bolada ruhiy stress, xavotir yoki oilaviy muammolar mavjud bo'lsa, bu o'qishga qiziqish va muvaffaqiyatga erishish uchun eng katta to'siq bo'lishi mumkin. Oilaviy muhit va ota-ona tomonidan ko'rsatilgan mehr va qo'llab-quvvatlash bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bolaning ta'lim tarbiyasida ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va psixologik omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, uning umumiy rivojlanishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.



Oilaviy sharoit, ota-onaning psixologik holati, moliyaviy imkoniyatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bolaning ta'limga bo'lgan munosabatini va umumiy rivojlanishini shakllantiradi.

Shuning uchun, bolaning ta'lim tarbiyasida bu omillarni hisobga olish juda muhimdir. Oilaviy daromad, yashash muhiti, ota-onaning ta'lim darajasi kabi omillar ham bolalarning o'quv imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Resurslar ko'pligi o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi, biroq bu har doim ham muvaffaqiyat kafolati emas — psixologik qo'llab-quvvatlash ham shunchalik muhim.



Oila va maktab hamkorligi

Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik bolaning ta'lim tarbiyasida juda muhim rol o'ynaydi. Bu ikki muhitning o'zaro aloqasi va bir-birini to'ldirishi bola uchun qulay va samarali rivojlanish shartlarini yaratadi. Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati quyidagilardan iborat

1. Bolaning emotsional rivojlanishi: Oila va maktab o'rtasida o'zaro ishonch va tushuncha bo'lsa, bola o'zini xavfsiz va ishonchli his qiladi. Bu uning emotsional barqarorligini ta'minlaydi va psixologik rivojlanishiga yordam beradi.



2. Ta'limda izchillik: Oila va maktabdagi tarbiya va ta'lim usullari bir-biriga mos bo'lsa, bola o'zi uchun ko'proq motivatsiya topadi. Masalan, agar maktabda ilmiy muvaffaqiyatlar rag'batlantirilsa, oila ham bu jarayonda qo'llab-quvvatlashi zarur.

3. Muammolarni hal qilish: Bola o'qishda yoki hayotida qiyinchiliklarga duch kelsa, oila va maktab birgalikda muammolarni tezda aniqlab, ular bilan qanday kurashish bo'yicha reja tuzishlari mumkin. Bunday hamkorlik bolani stress va bezovtaliklardan saqlaydi.

4. Bola motivatsiyasini oshirish: Oila va maktab o'rtasida muntazam aloqa o'rnatish bola uchun muhim. Masalan, oila maktabdagi muvaffaqiyatlarni nishonlab, bolaga qo'llab-quvvatlash ko'rsatishi va uning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

5. Jamoa ruhini shakllantirish: Oila va maktabning birgalikdagi faoliyati bolaning jamoa ichida ishlash, boshqalar bilan muomala qilish va guruhda ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, oila va maktab o'rtasida samarali hamkorlik bolaning ta'lim tarbiyasini yaxshilashga, uning individual rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga katta hissa qo'shadi. Bu ikki muhitning doimiy va bir-birini to'ldiruvchi aloqasi bola uchun yaxshi natijalarga olib keladi. O'quvchining muvaffaqiyati uchun faqat oila emas, balki maktab bilan o'zaro hamkorlik ham muhim. Ota-onaning maktabdagi faol ishtiroki, darslardan xabardorligi, o'qituvchilar bilan muloqoti — bularning barchasi ijobiy natijalarga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

- Ota-onalar uchun psixologik seminarlar tashkil etish;
- Maktabda ota-onalar klubi faoliyatini yo'lga qo'yish;



- Ustuvor tarbiyaviy qadriyatlar bo'yicha birgalikda qarorlar qabul qilish;
- O'quvchilarning ruhiy holatini muntazam monitoring qilish.

Xulosa

Psixologik iqlim bo'lgan oilada uning har bir azosi boshqalarga sevgi, hurmat va ishonch bilan, ota-onalarga hurmat bilan, zaiflarga har qanday vaqtda yordam berishga tayyorgarlik bilan munosabatida bo'ladi. Oilaviy munosabatlar va psixologik iqlim o'quvchi shaxsining shakllanishida va uning ta'limdagi muvaffaqiyatida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Oilaviy munosabatlar va psixologik iqlim o'quvchi muvaffaqiyatining muhim determinantlaridan biridir. Ijobiy oilaviy muhit, mehrga asoslangan munosabatlar va qo'llab-quvvatlovchi psixologik iqlim — bolalarning nafaqat o'qishdagi, balki hayotdagi muvaffaqiyatiga ham yo'l ochadi. Shu sababli, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar ushbu jarayonda birgalikda harakat qilishlari muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, M. (2020). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Xolmatova, D. (2019). *Bolalar psixologiyasi va tarbiyasida oilaning o'rni*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimova, V. M. (2006). *Oilaviy tarbiya va shaxs kamoloti*. Toshkent: Universitet nashriyoti.



4. Sodiqova, N. (2018). “O‘quvchining o‘qishdagi muvaffaqiyatiga oilaviy iqlimning ta’siri.” Psixologiya va pedagogika jurnali, №3, 45–50-betlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2021). *Oila, maktab va mahalla hamkorligi to‘g‘risida metodik qo‘llanma. Toshkent.